

KULTRUOLOGIK TA'LIM BOSQICHLARI VA METODLARI XUSUSIDA

Abdurahmonova Sharofat Bahromali qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: sharofatabdurahmonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kulturologik ta’lim metodlari va o‘qitish bosqichlari kulturolog olim N. Juravleva qarashlari asosida ko‘rib chiqiladi. Yondashuvdagi o‘zaro bog‘liqlik jihatlar til va madaniyat bilan aloqada yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yondashuv, aspekt, metod, kulturologiya, kontekst, uslub, tahlil, tamoyil, struktura, semiotik, stilistik, shakl, emotsiya, tarjimai hol.

ABSTRACT

In this article, cultural education methods and teaching stages are considered based on the views of cultural scientist N. Zhuravleva. Interrelated aspects of the approach are highlighted in relation to language and culture.

Key words: approach, aspect, method, culturology, context, analysis, principle, structure, semiotic, stylistic, form, emotion, biography.

Kulturologiya sohasining polisemantik xususiyati unga yo‘naltiriladigan metod va usullarning ham belgilanishida bir qadar turfalikni o‘zida ifoda etadi. Zero, adabiyotning o‘zi serqirra olam, uni tavsifi, har qancha mukammal bo‘lmisin, uning umumiyligi jihatlari biz sig‘dirmoqchi bo‘lgan yagona qoliplardan hamisha tashqarida bo‘ladi: “Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o‘zining qo‘llanilish chegarasiga ega. Biroq o‘zaro aloqada bo‘lgan til va madaniyat shunchalik ko‘p qirraliki, ularning tabiatini, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to‘ldiruvchi qator metodlarning qo‘llanishi g‘oyat tabiiydir”¹, deya ta’kidlaydi kulturolog olim V.A. Maslova.

Badiiy matnni, ayniqsa, dunyo adabiyotini kulturologik tahlil qilishda, avvalo asar mohiyati, ijodkor badiiy niyati, xos uslubi va tili, estetik didi, ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, uning e’tiborga molik jihatlarini ilg‘ash va semantik xususiyatlarini

¹ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 34.

o‘rganishda ma’lum metodik yo‘riqqa tayanish kerak bo‘ladi. Kulturologik yondashuvni adabiy ta’limda qo‘llash insonning atrofdagi voqelikni va o‘zini shu borliq konteksida idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan olamni tanish didini yuksaltirish orqali ma’naviy tarixini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

San’atshunos olim N. Juravleva¹ kulturologik yondashuvni qo‘llash yuzasidan ma’lum bosqichlarga bo‘lish kerakligi va tahlilning analitik turlar bilan tadqiq qilinishi yuzasidan o‘zining amaliy tavsiyalarini berib o‘tadi. Xususan, asar tahlili 3 bosqichda:

1. Badiiy asarning umumiy tavsifi. Bu bosqichda badiiy asarni tahlil qilishning umumiyligi, hali mufassal bo‘lmagan paradigmasi shakllanadi, u yanada konkretlashtiriladi hamda yangi detall va usullar yordamida o‘zlashtiriladi. Bunda kulturologik tahlil badiiy asarni muayyan madaniy an‘analar asosida vujudga keladigan keng kulturologik sohaning bir qismi sifatida ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Xuddi shu soha doirasida tanlangan asar o‘rganish chog‘ida boshqa san’at sohalari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, rivojlanadi. Ammo badiiy asarni o‘zini tahlil qilishga o‘tishdan avval davrning qisqacha tavsifini berish zarur. Bunda nadiiy asarning eng muhim talqiniy muhiti **tarixiylik tamoyili** bo‘lib, u badiiy jarayonning ajralmas qismi sifatida vujudga kelgan hodisanining sababini tahlil paytida hisobga olish, makon va zamon muhitidan turib munosabat bildirish va baholashni nazarda tutadi.

2. Kultural sharoitda badiiy asarning o‘rni va qiymatini aniqlash. Ushbu bosqich asarning chuqur qatlamini o‘rganadi, uni ma’lum bir kulturologik kontekstda tushunishga yaqinlashadi. Bu yerda kulturologiya tahlilning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi. Aynan u asarni talqin qilishning kaliti bo‘lib, sizga asarni o‘qish, idrok etish, tushunish imkonini beruvchi kodni beradi. Badiiy asarning tarixiy-kulturologik yondashuvi ana shunday shakllanadi. Mazkur yondashuvning markazida tadqiqotning eng muhim elementi sifatida muallifning taqdiri va uning madaniy muhiti yotadi. Yozuvchi nima uchun ma’lum mavzularga murojaat qilib, boshqalaridan qochishini tushunish, uslubdagi keskin o‘zgarishlar, muvaffaqiyat va yo‘qotishlar, samarali ijod davrlari va uzoq davom etgan pauzalarni tushuntirish uchun yozuvchi xarakterining kundalik tafsilotlari, uning didi va muloqot muhitiga murojaat qilishdan qochib bo‘lmaydi. Ijodkorlar tarjimayi holi kechimi va taqdiri asar mazmuni, mavzusi va unga oid tarixiy davrlarning o‘ziga xosligi va shu kabi faktorlarga bog‘liqligi qiziq va muhim faktadir. Ijodkorlarni alohida turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va munosabatlari, o‘zini boshqarish va namoyon qilish usullari birlashtirib turadi. Xillas, mazkur tahlil turida ijodkorning ijod tarixi, kompozitsiyasi, yozish jarayonini bilish muhimdir. Bunday

¹ Журавлева Н.Б. Культурологический анализ художественного произведения. Актуальные проблемы мировой художественной культуры. Материалы международной научной конференции. –Гродно. 2002. –С. 82-86.

ijodiy-gentik yondashuv asarning yaratilish tarixini uni o‘qishning ajoyib vositasiga aylantiradi. Ijodkorning hayot yo‘lidagi har bir o‘zgarish uning haoyitdagi yangi bosqich haqida gapirishga imkon beradi.

3. Strukturaviy tahlil. Bu tahlil turi badiiy asar tuzulishiga kirib borishga, uni uslublar tizimi sifatida tadqiq etishga yordam beradi. An’anaviy strukturaviy tahlil semiotic stilistik komponentlarga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu bosqichda badiiy asarni tahlil qilishni uch usulga ajratish mumkin:

I. Semiotik tahlil. Bu tahlil san’atning tilda namoyon bo‘lishi pozitsiyasidan kelib chiqqan holda u orqali biz nimalarni ko‘ra olishimiz quyidagicha belgilangan:

- davr haqida kultural ma’lumotlar;
- dominant qadriyatlar tizimini tavsiflash;
- dunyoqarash kredosi;
- muallif haqida ma’lumot, o‘ziga xos ijodiy uslubi;
- asarning badiiy maqsadi.

Har bir tarixiy davr kulturologiyaning o‘ziga xos semantik va qadriyat sohasiga ega bo‘lib, unga mos til vositalarini rivojlantiradi: “Til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalanish tizimi hisoblanadi”¹. Kulturologiyaga ega bo‘lgan imo-lingvistik vositalarning barcha xilma-xilligida ramz alohida belgilovchi o‘ringa ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday kulturologiyaning o‘zagi qadriyat va ma’no tushunchalaridir. semiotik tahlil ma’no(badiiy tushuncha) va qadriyat(qiymat)ni o‘z ichiga olgan belgilar tizimi sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Asar butun kulturologiyaning elementi bo‘lib, uning metasignalni sifatida ishlaydi.

II. Stilistik tahlil. Bu tahlil yo‘nalishi nafaqat badiiy-kontseptual, balki vaqtinchalik ma’lumotlarni ham o‘zida mujassam etgan badiiy yo‘nalish va uslubni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda bunda badiiy yo‘nalishlar va uslublar evolutsiyasining izchil jarayonini, u yoki bu muallif tushunganidek, badiiy muammolarni to‘g‘ri hal qilishni emas, balki ularni keltirib chiqargan kulturologiyaning universalligini tushunish, ma’lum bir vaqt va makonda harakat qilayotgan shaxsning dunyoqarashini idrok etish uchun asos topish muhimdir. Bunda kulturologik yondashuvning yangi ideallar, yo‘nalishlar, didlar paydo bo‘lishi va tarqalishi jihatlari namoyon bo‘lishiga imkon beruvchi aspektlari faollikkda bo‘ladi.

III. Intonatsion tahlil. Bu tahlil turida badiiy asarning emotinal ranglanishiga, tarangligiga, mantiqiy-semantik boyligiga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Badiiy asar tahlilida kulturologik yondashuvning bu jihat muhim, sababi bu talabalarning badiiy asarni mantiqiy idrok etish, dardni emotsional his etish, badiiy qahramonlarga

¹ Алифиренко Н.Ф. лингвокультурология. Ценностно смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука. 2020. –С. 21.

hamdard bo‘lish, achinish, quvonchlariga sherik bo‘lish, xullaski, asar badiiy emotsiyasiga nisbatan ularning azob va quvonch tuyg‘ulari reaksiyasini faollashtirishga xizmat qiladi.

4. Badiiy asarning yaratilgan davridagi qiymatini aniqlash va unga qaratilgan yaxlit nuqtayi nazarni shakllantirish. Bu bosqichda badiiy asarning ijtimoiy faoliyat ko‘rsatish dinamikasi va mexanizmlari o‘rganiladi, ya’ni, turli avlodlar va turli davrlarda uning mavjud bo‘lish va tarqalish, idrok etish muhit oydinlashtiriladi; uning ijtimoiyligi salmog‘i; mazmuni va ahamiyati, asar qiymati ustunligi va boshqa shu kabi jihatlar o‘rganiladi. Asar badiiy kontseptsiyasining ahamiyati uning aniq tarixiy va umuminsoniy ijtimoiy vazifalarga muvofiqligi bilan belgilanadi. Kulturologik yondashuvning ushbu to‘rt bosqichi natijalarini sintez qilish asosida badiiy asarga yakuniy umumiylaho shakllantiriladi. Jahon va mahalliy kulturologik yondashuvli darslarni tashkil qilish va o‘tkazish metodologiyasining yuqoridagi tarkibiy qismlarining butun qurulishi kulturologik ta’limning asosiy maqsadini – o‘quvchi shaxsini badiiy kulturologiya kiritish, unda haqiqiy badiiy qadriyatlarni mustaqil ma’naviy rivojlanishiga tayyorlik qobiliyatlarini shakllantirish, uning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных, заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001.
2. Журавлева Н.Б. Культурологический анализ художественного произведения. Актуальные проблемы мировой художественной культуры. Материалы международной научной конференции. –Гродно. 2002.
3. Алифиренко Н.Ф. лингвокультурология. Ценностно смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука. 2020.
4. Медведова В. Урок литературы в контексте культуроориентированного образования. Педагогические образования в России. №3. 2006.